

THE IMPORTANCE OF USING THE CASE STUDY METHOD IN BIOLOGY CLASSES

Ibodullayeva Dilorom Murodullayevna
She is a teacher at Taylak District School No. 3

Abstract:

This article describes the structure, implementation stages and methods of using the method of biology lessons in problem-based learning technologies in secondary **schools**.

Keywords: "Case study", advanced pedagogical technology, pedagogical process, interactive methods, model, experimental method.

Bugungi davr talabi dunyo ta'limi oldiga katta vazifani qo'yimoqda ya'ni bolani kelajakdagi jamiyatda yashashga tayyorlashi kerak. Bunda birinchi navbatda tez o'zgarayotgan axborot bilan ishlaydigan kasblar bilan bog'liq xususiyatlarni bolada shakllantirish lozim. Ta'lim jarayoni o'quvchilarning bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, ularda kognitiv ko'nikmalarni shakllantirish, ularning ilmiy dunyoqarashi, ijodiy izlanishlarini rivojlantirish maqsadiga yo'g'rilgan o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi sanaladi, boshqacha aytganda, ta'lim mazmunining o'qitish metodlari yordamida o'zlashtirilishiga erishishdir.

Metod so'zi umumiy ma'noda muayyan maqsadga erishish usulidir. O'qitish metodlari tom ma'noda o'qituvchining bilimlarni o'quvchilar ongiga yetkazish va ayni paytda ularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olish usulidir. Biz quyida muammoli vaziyatlarni o'rgatadigan va kognitiv bilish darajasini oshirishga xizmat qiladigan "Keys-stadi" metodidan foydalanish metodikasi bilan tanishib chiqamiz.

"Keys-stadi" - inglizcha so'z bo'lib, ("sase" - aniq vaziyat, hodisa, "study" - o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Keysda vaziyat sifatida ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan tahlil uchun foydalanish mumkin. Bu metod muammoli ta'lim metodidan farkli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma- bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi

"Keys stadi" metodini amalga oshirish bosqichlari

1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish;

2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ini belgilash;

3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish;

4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot;

"KEYS – STADI" METODI

Biologiya fanini o'qitish jarayonida biz kognitiv tadqiqotlar o'tkazish orqali o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni yanada rivojlantirib boramiz. Botanika fanidan o'tkaziladigan bir tajribada "Keys –stadi" metodini qo'llab ko'ramiz. Ular uchta probirkaga bir xil miqdorda suv qo'yishdi. Uchta probirkaga xona o'simligining novdasini solishdi. Probirkadagi suv yuzasida o'simlik yog'idan bir tomchi tomizishdi va birinchi probirkadagi o'simlik barginig ikki tomonini, ikkinchi probirkadagi o'simlik barginig ostki tomonini, uchinchi probirkadagi o'simlik barginig ustki tomonini vazelin bilan moylashdi. Suv sathida qanday o'zgarishlar sodir bo'lishini izohlab bering.

Savollar:

- 1.Nima uchun o'quvchilar novda solingan suvli probirkalarga o'simlik yog'i solishdi ?
- 2.Nima maqsadda probirkalardagi o'simlik barglariga vazelin surtishdi ?
- 3.Probirkalarda qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi ?
- 4.Bunday holatlar o'simlikka qanday ta'sir ko'rsatadi ?

Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:

- 1.Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling;
- 2.Muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang;
3. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga harakat qiling;
- 4.O'z fikringizni bayon eting;

O'qituvchining yechimi:

1.Bizga ma'lumki o'simliklar bargi orqali suv bug'latadi ya'ni trasperatsiya hodisasi sodir bo'ladi.O'quvchilar bu hodisani ko'z bilan kuzatish uchun ular bargli yosh novdani qirqib olib, uni probirkadagi suvga solib qo'yishdi. Suv probirkani o'zidan bug'lanib ketmasligi uchun unga o'simlik yog'i tomizishdi. Agar probirkadagi suvga avval yog' solib, so'ng novdani solishganda, novda yog' solingan suvga kirish jarayonida kesilgan joyiga yog' moddasi yopishib qolib, uning ta'sirida suv umuman bug'lanmasligi mumkin edi.

2. O'quvchilar o'simlik barglari qanday holatlarda ko'p suv bug'latishini kuzatish uchun 3ta probirkadagi o'simlik barglariga 3xil holatda vazelin surtib tajriba o'tkazishdi.

1) 1- probirkaga solingan o'simlik bargining ham ustki va ostki tomoniga vazelin surtib qo'yishdi.

2) 2-probirkaga solingan o'simlik bargining ostki tomoniga vazelin surtib qo'yishdi.

3) 3-probirkaga solingan o'simlik bargining ustki tomoniga vazelin surtib qo'yishdi.

3.1-probirkadan suv bug'lanmaydi, shuning uchun suvning sathi o'zgarmaydi. Chunki o'simlik barg og'izchalar (ustitsalar) vazelin ta'sirida yopilib qolgan bo'ladi.

2-probirkadagi o'simlik bargidan o'rtacha miqdorda suv bug'lanadi, suv sathi ozroq kamayadi. Chunki bargning ustki qismida ostki qismiga qaraganda kamroq og'izchalar (ustitsalar) bo'ladi.

3-probirkadagi o'simlik bargidan ko'proq suv bug'lanib. Probirkadagi suvning sathi ancha kamayadi.Chunki barg og'izchalari bargning ostki qismida ko'proq joylashgan bo'lib. Ular suvni ko'proq bug'latadi.

4.Bunday holatlar o'simlikka yomon ta'sir ko'rsatadi.Chunki o'simliklar issiq kunlari barg og'izchalari orqali suv bug'latib,tanasini qizib ketishidan sovutib turadi.Shuning uchun o'simlilar kuzgi tinim davriga o'tish vaqtida, sovuq qish kunlarida suv bug'latmaslik uchun barglarini to'kib yuboradi. Bu holatga xazonrezgilik deyiladi.

Bu tajriba orqali o'quvchilar botanika fanini o'qish jarayonida, o'simliklar uchun trasperatsiya ya'ni suv bug'latish hodidsasi qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini yanada chuqurroq o'rganib oladilar.Muammoli bvaziyatlarni mazmun mohiyatini tushunib yetadilar.

Xulosa qilib aytganda, "Keys-stadi" metodi orqali o'qituvchi o'quvchilarni muammoli vaziyatlarni yechish uchun izlanishga, individual va jamoada ishlashga, fanlarni bir bir bilan bog'lashga (imegratsiyaga), xilma-xil o'quv loyihalarini ishlab chiqishga o'rgatadi va ularning muvaffaqiyatga erishish uchun o'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirib boradi. Bu metod yordamida biz o'qituvchilar o'quvchilarda kognitiv bilish orqali kognitiv tadqiqotlar o'tkazish orqali, ularda kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirib borishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarori
2. Pratorov O., To'xtaev A. va boshqalar. Biologiya (Botanika). Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2017y.
3. Tolipova J.O., Umaraliev M.T., Abdurizaeva S. Botanika darslari (O'qituvchi kitobi) Umumiy o'rta ta'lim maktablarining biologiya o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. (6-sinf) "Tafakkur" nashriyoti. Toshkent-2016 y.

Muallif(lar)ning F.I.Sh	Ibodullayeva Dilorom Murodullayevna
Sho`ba nomi	Pedagog xodimlar kasbiy ehtiyojlarini aniqlashning innovatsion metodikalari
Maqolaning mavzusi	Biologiya darslarida "Keys-stadi" metodidan foydalanishning ahamiyati
Lvozimi, ilmiy darajasi, unvoni	Biologiya fani o`qituvchisi
Ish joyi	Tayloq tuman, 3-maktab
Telefon (kodi bilan)	+998 93 9958092
E-mail	